



UDK: 911.3(575.1)(075.3):004

Jahongir MUSAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti professori, p.f.d
E-mail: jahongirmusaev27@gamil.com
Asliddin ARABBOEV,
O'zMU magistranti

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, g.f.n R.Maxamadaliyev taqrizi asosida

O'ZBEKISTONNING IQTISODIY-IJTIMOY GEOGRAFIYASI (8-SINF)DAN INNOVATSION ELEKTRON QO'LLANMALAR TAYYORLASH VA TA'LIM JARAYONIGA TADBIQ ETISH AMALIYOTI

Annotatsiya

Umumta'lim maktablarida O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi (8-sinf) fanini o'qitishda innovatsion elektron qo'llanmalar tayyorlash va ta'lim jarayoniga tadbqiq etish bugungi axborot va texnologiyalar asrining asosiy talablaridan biriga aylanib ulgurdi. Bu esa pedagoglardan tinmay o'z ustida ishlashlari va ta'lim jarayonida kreativlikni, mantiqiylikni, mustaqil fikrlash kabi XXI asr ko'nikmalarini puxta egallash talabini qo'yadi. Ushbu maqolamizda geografiyadan innovatsion elektron qo'llanmalar tayyorlash va ta'lim jarayoniga tadbqiq etishning amaliyoti haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Geografiya, innovatsion elektron qo'llanmalar, XXI asr ko'nikmalari, stat.uz, taqdimot, o'quv qo'llanma, Student-Fisher mezon.

ПРАКТИКА ПОДГОТОВКИ И ВНЕДРЕНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС ИННОВАЦИОННЫХ ЭЛЕКТРОННЫХ ПОСОБИЙ ПО ЭКОНОМИЧЕСКОЙ И СОЦИАЛЬНОЙ ГЕОГРАФИИ УЗБЕКИСТАНА (8 КЛАСС)

Аннотация

Подготовка и внедрение в образовательный процесс инновационных электронных пособий при преподавании предмета "Экономическая и социальная география Узбекистана" (8 класс) в общеобразовательных школах стало одним из основных требований современной эпохи информации и технологий. Это требует от педагогов непрерывного самосовершенствования и глубокого овладения такими навыками XXI века, как креативность, логическое мышление и самостоятельность мышления в образовательном процессе. В данной статье подробно освещается практика подготовки и внедрения в образовательный процесс инновационных электронных пособий по географии.

Ключевые слова: География, инновационные электронные пособия, навыки XXI века, stat.uz, презентация, учебное пособие, критерий Стьюдента-Фишера.

THE PRACTICE OF PREPARING INNOVATIVE ELECTRONIC MANUALS FOR THE ECONOMIC AND SOCIAL GEOGRAPHY OF UZBEKISTAN (8TH GRADE) AND THEIR IMPLEMENTATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation

The preparation of innovative electronic manuals for teaching the economic and social geography of Uzbekistan (8th grade) in general education schools and their implementation in the educational process has become one of the main requirements of today's information and technology era. This demands that teachers continuously work on self-improvement and thoroughly master 21st-century skills such as creativity, logical thinking, and independent reasoning in the educational process. This article provides a detailed description of the practice of preparing innovative electronic manuals on geography and implementing them in the educational process.

Keywords: Geography, innovative electronic manuals, 21st-century skills, stat.uz, presentation, textbook, Student-Fisher criterion.

Kirish. Respublikamizning umumta'lim maktablarida o'quv jarayonini takomillashtirish maqsadida o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishi zaruriy ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmonida belgilab berilgan "O'zbekiston-2030 strategiyasi"ning 1.1 bandi Ta'lim tizimi islohatlariga bag'ishlangan. Ushbu bandning 3-ko'rsatmasida "Umumiy o'rta ta'lim ta'limini yangi bosqichga olib chiqish" bo'lib, bu bo'yicha "700 ga yaqin nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar va mobil ilovalar yaratish. Yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun 1 000 ta multimedia dasturlarini yaratish." hisoblanadi.¹

Yuqoridagi qaror va farmonlarni bajargan holda umumta'lim maktablari uchun geografiya fanidan elektron qo'llanmalar tayyorlamoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. 1960-yildan boshlab geografiya ta'limi metodikasiga oid maxsus qo'llanma va darsliklar nashr etildi. O'sha davrda O'zbekistonda geografiya fanini takomillashtirishda A.Obidov, O.Saidrasulov, H.Hasanov, N.Daminov, Z. Akramov, O.Mo'minov, M.Nabixonov, I.Mirzaboyev va boshqalarning xizmatlari katta bo'ldi. [4]

Xususan, keyingi yillarda O'zbekistonda geografiya o'qitish metodikasi sohasida XX arsning oxiri va mustaqillik yillarida yirik olimlar yetishib chiqdi. Geografiya o'qitish metodikasi sohasida O.Mo'minov, H.Vaxobov, R.Qurbonniyozov, P.Musayev, J.Musayev, P.G'ulomov, G'.Pardaev, D.Tojiboyeva, A.Yo'ldoshev va boshqalar katta ishlarni amalga oshirishgan.

Geografiyani o'qitish metodikasi bo'yicha juda ko'plab ta'lim dargohlarida soha olimlari o'z ilmiy izlanishlarini olib bormoqda.

Bugungi kunga qadar umumta'lim maktablari uchun geografiya fanidan darslik va o'quv qo'llanmalari tayyorlashda N.Dolimov, O.Mo'minov, T.Abdullayeva, P.Musayev, J.Musayev, P.G'ulomov, H.Vaxobov, V.Federko, A.Qayumov, P.Baratov, M.Mamatqulov, M.Mirakmalov, N.Safarova, A.Abdulqosimov, R.Qurbonniyozov, A.Soatov, Sh.Sharipov, M.Tillaboyeva va boshqalar o'zlarining be'minnat hissalarini qo'shganlar.

Pedagog A.A.Abdudodirovning ilmiy-tadqiqot ishlarida zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan o'quv-tarbiya jarayonini jadallashtirish uchun o'qituvchi-talaba-kompyuter uchligini o'quv faoliyatidagi o'rni va bosqichlarini tahlil qilish zarur ekanligi uqitiriladi. [2] Ushbu fikrga qo'shilgan holda bugungi kunda geografiya darsi jarayonlarida zamonaviy axborot-texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish lozim.

Geografiya o'qitish metodikasi bo'yicha H.Sh.Djuraboyeva, K.Boymirzayev, R.Y. Xoliqov tomonidan yozilgan o'quv-uslubiy majmua esa geografiya darslarida vizual vositalardan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu manbada xaritalar, tasviriy materiallar va interaktiv taqdimotlar orqali o'quvchilarning bilim olish jarayoni yaxshilanishi mumkinligi qayd etilgan. [3]

Taniqli rus pedagogi A.Pancheshnikova "Maktablarda geografiyani o'qitish quyidagi muammolarni, ya'ni o'qitish maqsadi "geografiyani nima uchun o'qitamiz", geografiya ta'limi mazmunini "nimani o'qitamiz" geografiya ta'limi vositalarini (nimalar yordamida o'qitamiz?)"[5].

Yuqoridagi savollar zamon bilan hamnafas ravishda o'zgarib boradi.

Geografiya ta'limi o'quv vositalariga darslik, xaritalar va globuslar, multimedia vositalari, laboratoriya asboblari, GPS qurilmalari va boshqalar kiradi.

Geografiya faniga oid juda ko'plab dasturlar va saytlar mavjud. Masalan, Google Earth dasturi (earth.google.com) yer yuzini 3D umumiy holatda va har bir hudud miqyosida vizual ko'rish imkoniyati mavjud.

Interactive Geographical Atlas yordamida har xil xaritalar va geografik ma'lumotlarni interaktiv tarzda o'rganish mumkin.


National Geographic (nationalgeographic.com) – dunyo geografiyasi va tabiati haqidagi maqolalar, interaktiv xaritalar mavjud.

Gapminder (gapminder.org) – statistik ma'lumotlar asosida dunyo va geografik jarayonlar haqida interaktiv taqdimotlar.

World Atlas (worldatlas.com)- geografik ma'lumotlar va xaritalar bor. Bulardan tashqari ventusky.com, Seterra Geography Games kabi saytlar o'quvchilarning fanni chuqurroq va osonroq interfaol tarzda o'rganishiga ko'maklashadi. Bu borada Maktabda geografiya jurnali pedagoglarga zamonaviy metodikalar bilan tanishtirish bilan birga, qiziqarli va ajoyib ma'lumotlar ham beradi. Keyingi yillarda yaratilgan "GeoOlam", Qiziqarli geografiya, Geografiya.uz, Geografiya va ta'lim kabi saytlarda fanga oid eng yangi taqdimot va videoroliklar berib borilmoqda.

Natijalar: Taqdimot – biron-bir ma'lumotni vizual va og'zaki tarzda auditoriyaga tushuntiradi. Tarkibi: slaydlar, grafiklar, rasm, xarita va qisqa matnlardan iborat. Foydalanish vaqti ham chegaralangan. Ammo faqat o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

Elektron qo'llanma – mavzuni batafsil tushuntiradi, o'quvchining mustaqil fikrlashiga yordam beradi. Ular matnli, rasmlil, videolar, animatsiyalar va boshqa interaktiv resurslaridan iborat bo'ladi. Darslikdagi ayrim mavzularni oson va tezroq o'rganishga yordam beradigan yaxlit qo'llanma hisoblanadi. Elektron qo'llanmalarni oddiy o'quv qo'llanmalaridan farqi shundaki, kamchiqim, yangilab borish imkoniyati mavjud, zamon bilan hamnafas o'zgaradi. O'quvchilar tez tushunadilar.




1-rasm. Aholining yosh va jins tarkibi. Mazkur ma'lumotlar stat.uz rasmiy sayti ma'lumotlariga asoslanib, muallif tomonidan tayyorlandi.

Aholi – ma'lum bir joyda va ma'lum bir vaqtda to'plangan kishilar jamoasidir. Yuqoridagi 1-rasmda Aholining yosh va jins tarkibi bo'yicha piramidasi tasvirlangan. Ushbu elektron qo'llanmada barcha raqamlar Davlat Statistika qo'mitasining rasmiy Stat.uz saytidan olindi.

Ma'lumotlar shundan darak beradiki, O'zbekistonda aholi sonining ko'payish sur'atlari progressiv jarayonda ketmoqda. Bu jarayonni o'quvchining ko'z oldida aks ettirilmasa mavzu biroz tushunarsiz bo'ladi. Respublikamizda aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi yil sayin oshib bormoqda. Buning asosiy sababi, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar, ta'lim xizmatlari, yashash sharoitining tobora yaxshilanib borishi hisobiga erishilmoqda.


O'zbekiston demografik jarayonning 1-bosqichini boshidan kechirmoqda.



2-rasm. Aholi soni hududlar kesimida. Mazkur ma'lumotlar stat.uz rasmiy sayti ma'lumotlariga asoslanib, muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi 2-rasmda Aholi soni hududlar kesimida ketma-ketlikda tayyorlandi. 2019-yilgi statistikaga ko'ra, Samarqand, Farg'ona va Qashqadaryo viloyatlarini kuchli 3 ta o'rinni 2010-yildan buyon egallaganligini bilib olish mumkin. Bu viloyatlarda aholi soni zichligi ham yuqori va tug'ilish darajasi keskin o'sayotganligini ko'ramiz. Bunga asosiy sabab sifatida tarixiy-madaniy, iqtisodiy-ijtimoiy, transport omillari bilan bog'lash mumkin. Tarixdan ma'lumki, Samarqand – poytaxt vazifasini bajargan. Shahar Buyuk Ipak yo'li bo'yida joylashgan. Ko'plab tarixiy obidalar barpo etilgan. Sanoat va ishlab chiqarish salohiyatining yuqoriligi, suv resurslari bilan yaxshi ta'minlanganligi, qadimdan obikor dehqonchilik uchun qulay hududlar bo'lgani va h.k. hisobga olinadi.

Aholi zichligi va soni bo'yicha eng past natijalar Jizzax, Navoiy, Sirdaryo viloyatlarida qayd etilib turibdi. Bunga bu viloyatlarning biroz keyin tashkil etilishi, Mirzacho'lni o'zlashtirish, aholini ko'chirish, tabiiy sharoit, relyef, iqtisodiy jihatlarini qonuniyat sifatida olish mumkin. Bu hududlarga bugungi kunda Toshkent va Zarafshon iqtisodiy rayonlaridan malakali kadrlar jalb qilinib, Sanoat va qishloq xo'jaligi sohasida o'ziga xos yutuqlarga erishilmoqda.



3-rasm. Yalpi ichki mahsulot (mlrd.so'm). Mazkur ma'lumotlar stat.uz rasmiy sayti ma'lumotlariga asoslanib, muallif tomonidan tayyorlandi.

Muhokama. Geografiya – yer yuzi aholisi, xo'jaligi, turmush tarzini o'zini o'rganmay, bugungi kunda ko'plab sohalar bilan integratsiyasi alohida o'ringa ega.

Qadimdan geografiya “Nima?”, “Qachon?”, “Qayerda?” kabi savollarga javob bergan bo'lsa, bugungi kunda “Nima qilish kerak?”, “Qanday qilish kerak”, “Qayerda quramiz?” kabi savollarga javob izlamoqda.

Maktabda ta'lim berish jarayonida o'quvchilarga quruq raqam va faktlarni yodlashdan qochishimiz kerak. Bu fanning ahamiyatini tushurib yuboradi.

D.Tojiboyeva, A.Yo'ldoshevlar tomonidan Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi darsligida B.Blum bilim olish darajasiga quyidagicha ta'rif bergan. Ya'ni “bilim olish darajasi ma'lum ierarxiya tarzida joylashib, har bir bosqich avvalgisiga qaraganda murakkab hamda avvalgi bosqichlarni ham o'z ichiga oladi. Ya'ni, bilim har bir yangi pog'onaga ko'tarilar ekan, albatta, avvalgi bosqichni ham takrorlash lozim bo'ladi. Ular quyidagilar:

1.Bilish; 2.Tushunish; 3.Qo'llash; 4.Tahlil qilish; 5.Sintez; 6.Baholash” [5].

Bilish – o'quvchilar avvalo, geografiyadan boshlang'ich bilimlarni puxta egallashlari zarur.

Tushunish - ta'lim berish jarayonida o'quvchilarga quruq raqam va faktlarni yodlash emas, bu ko'rsatkichlar qaysi manbadan olingani, qonun-qonuniyatlar mohiyatini tushunish lozim.

Qo'llash – Nazariy olgan bilimlarini amaliyotda sinashdir. Innovatsion elektron qo'llanmalar o'quvchilarni nazariy bilimlar olishini oshiradi. Amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Tahlil qilish – hududning rivojlangan va rivojlanmaganligi yoki aholisi siyrak va zichligining asosiy sabablari va unga ta'sir etuvchi geografik qonuniyatlarni tahlil qilish lozim.

Sintez – bu bosqichda o'quvchilar mavzu bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilim elementlarini birlashtiradi. Yaxlit tasavvur shakllanadi.



4-rasm. Pedagogik tajriba-sinov jarayoni samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar. Mazkur klaster ma'lumotlari Musurmanov Raxmatillaning “Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va boshqarish” nomli dissertatsiyasi asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Student-Fisher mezon va matematik-statistika metodi. Ushbu metod tadqiqot jarayonida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijalarining obyektivligi, tavsiya etilgan metodikaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tajriba sifatida Toshkent shahridagi 160-sonli Ayrim fanlar chuqur o'rgatiladigan umumiy o'rta ta'lim maktabi olindi.


Tajribadan oldin 8-sinf O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o'rganuvchi o'quvchilarda tayyorlangan elektron qo'llanma bo'yicha o'quv jarayoni samaradorligi ko'rsatkichi quyidagicha bo'ldi.

Sinflar	O'quvchilar soni	O'zlashtirish darajalari		
		yuqori	o'rta	quyi
Tajriba sinfi 8-"A"	33	10	15	8
Nazorat Sinfi 8-"B"	34	9	18	7

Tajribadan so'ng esa 8-sinf O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o'rganuvchi o'quvchilarda tayyorlangan elektron qo'llanma bo'yicha o'quv jarayoni samaradorligi ko'rsatkichi quyidagicha bo'ldi.

Sinflar	O'quvchilar soni	O'zlashtirish darajalari		
		yuqori	o'rta	quyi
Tajriba sinfi	33	16	9	8
Nazorat Sinfi	34	10	19	6

Tajriba natijalari quyidagicha aniqlandi.



Xulosa. Xulosa o'rinda shuni aytish kerakki, O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi (8-sinf) fanini o'qitishda innovatsion elektron qo'llanmalar tayyorlash va ta'lim jarayoniga tadbiiq etilsa, quyidagi bir qator afzalliklarga erishiladi.

- Vizual aks ettirish qobiliyati rivojlanadi;
- Fanga bo'lgan qiziqishni oshiradi;
- Murakkab mavzularni soddalashtiradi;
- Real hayot bilan bog'lanadi;
- Tashqi muhitga bo'lgan munosabati oshadi;
- O'quvchilarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini oshiradi;
- Ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yana shuni aytib o'tish lozimki, bunday elektron qo'llanmalardan ta'lim jarayonida keng foydalanish o'quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg'usini kamol toptiradi. Quyidagi taklif va tavsiyalarni aytib o'tish joiz;

1. Umumta'lim maktablarida pedagoglarida AKT ko'nikmalarini rivojlantirish va rag'batlantirish;
2. Darslar uchun qiziqarli elektron qo'llanmalar tayyorlash va keng foydalanishni takomillashtirish.
3. Geografiya faniga oid elektron qo'llanmalar tayyorlash uchun yangi dasturlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish
4. Ta'lim jarayoni unumdorligiga ta'sirini sotsiologik so'rovnoma olish va natijalarini OAV da muntazam ravishda yoritib borish.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston-2030 strategiyasi" to'g'risida PF-158-son Farmoni. 1-ilovalar 3-band. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Faффоров Ф.Х. "Махсус фанлар бўйича электрон таълим базасини яратиш ва уларни масофадан фойдаланиш методикаси". Пед. фан. фал. док. ... дисс. – Т.: 2018. – Б. 44.
3. Ибрагимова Г. "Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш". Пед. фан. фал. док. ... дисс. – Т.: 2017. – Б. 7.
4. Musayev P.G., Musayev J.P, O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi: umumiy o'rta ta'lim maktablari 8-sinf uchun darslik. -T: "Sharq" 2019.-160 b
5. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti https://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/869/html/60667/mavzu_1.htm- internet sayti
6. <https://asadbek525.github.io/geography/#/economy-energy> - internet sayti.